



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	12
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIVAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI)	18
Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI	26
Xatamov Ochildi Qurbonovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ	32
PhD. Юлдашева С.Ш	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH	38
Haydarova Dinora Atamurot qizi	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ	43
Гоженко Борис Владимирович	
MOLIVAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH	50
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI	55
Fazilat Esirgapovna Jomonqulova	
Nizomov Murod	
Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE	58
Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH	62
R.I.Rashidov	
A.N. Elmurodov	
A.A. Muhiddinov	
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS	68
Bokhodirov Boriykhon Boburovich	
Bahromjon Urmanov	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHİYATINI BOSHQARISH	74
Ergashova Nilufar Sobirovna	
DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	80
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
VERTIKAL INTEGRATSİYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEKNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI	84
Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich	



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL EKOTIZIM" VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI.....	90
Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich	
TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR	94
Pardayeva Ozoda Mamayunusovna	
СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА	100
Maъrupova Dilcopa Aбдулла кизи	
O'ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTSIONAL SHART-SHAROITLARI.....	105
Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li	
АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ	113
Усманова Зумрад Исламовна	
Рахматуллаев Алижон	
Сайфитдинов Азизжон	
G'AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA)	119
Axadov Shahboz Shuxrat o'g'li	



G'AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANK LIKVIDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA)



Axadov Shahboz Shuxrat o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi (PhD),
“Ipak yo‘li” aksiyadorlik innovatsiya tijorat banki
“Likvidlikni boshqarish” bo‘limi bosh mutaxassisi
ORCID: 0009-0008-8138-2480

ANNOTATSIYA. Bank likvidligini samarali boshqarishda g'aznachilik operatsiyalarining ahamiyati hamda ularning tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni tadqiq etilgan. AQShning Silicon Valley Bank faoliyati misolida aktiv va passivlarni boshqarishdagi nomutanosiblik, foiz stavkalari riskining ortishi hamda depozitlar oqimining keskin qisqarishi bank likvidligiga ko'rsatgan salbiy ta'sirlar tahlil qilingan. Shuningdek, g'aznachilik operatsiyalarini samarali tashkil etish va qisqa muddatli likvid resurslarni boshqarishning muhim jihatlari yoritilgan. Tadqiqot natijasida banklarda likvidlik riskini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash maqsadida zamonaviy g'aznachilik instrumentlaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: foiz stavkasi, likvidlik, startup, venchur kapitali, likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR), sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR), likvidlik buferi.

АННОТАЦИЯ. Исследовано значение казначейских операций в эффективном управлении банковской ликвидностью и их роль в обеспечении финансовой устойчивости коммерческих банков. На примере деятельности Silicon Valley Bank в США проанализировано влияние дисбаланса в управлении активами и обязательствами, роста процентного риска и резкого сокращения притока депозитов на уровень банковской ликвидности. Также раскрыты ключевые аспекты эффективной организации казначейских операций и управления краткосрочными ликвидными ресурсами. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения по совершенствованию использования современных казначейских инструментов в целях снижения риска ликвидности и укрепления финансовой устойчивости банков.

Ключевые слова: процентная ставка, ликвидность, стартап, венчурный капитал, коэффициент покрытия ликвидности (LCR), коэффициент чистого стабильного фондирования (NSFR), буфер ликвидности.

ABSTRACT. The significance of treasury operations in effective bank liquidity management and their role in ensuring the financial stability of commercial banks are examined. Using the case of Silicon Valley Bank in the United States, the study analyzes the impact of asset-liability mismatches, rising interest rate risk, and a sharp decline in deposit inflows on bank liquidity. The paper also highlights key aspects of the effective organization of treasury operations and the management of short-term liquid resources. Based on the findings, scientific and practical recommendations have been developed to improve the use of modern treasury instruments aimed at reducing liquidity risk and strengthening financial stability in banks.

Keywords: interest rate, liquidity, startup, venture capital, liquidity coverage ratio (LCR), net stable funding ratio (NSFR), liquidity buffer.

KIRISH

Jahon moliya tizimida so'nggi yillarda kuzatilayotgan iqtisodiy o'zgarishlar, foiz stavkalarining tebranishi hamda moliyaviy bozorlardagi risklarning ortib borishi tijorat banklari faoliyatida likvidlikni samarali boshqarish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Bank tizimining barqaror faoliyat yuritishi ko'p jihatdan uning



qisqa muddatli majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish qobiliyati, ya'ni likvidlik darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli banklarda likvidlikni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va bu jarayonda g'aznachilik operatsiyalarining rolini kuchaytirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

G'aznachilik operatsiyalari bankning moliyaviy resurslarini samarali boshqarish, aktiv va passivlar muvozanatini ta'minlash, likvid mablag'lar hajmini nazorat qilish hamda moliyaviy risklarni boshqarishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, global moliya bozorlaridagi o'zgarishlar sharoitida banklarning foiz risklari, depozitlar oqimi va investitsion faoliyat bilan bog'liq xatarlarni samarali boshqarishida g'aznachilik tizimining ahamiyati yanada ortib bormoqda.

2023-yilda Silicon Valley Bank¹ faoliyatida yuzaga kelgan likvidlik bilan bog'liq holatlar banklarda aktiv va passivlarni boshqarish, foiz stavkalari riskini baholash hamda depozit bazasining barqarorligini ta'minlash masalalarining naqadar muhim ekanligini yaqqol namoyon etdi. Ushbu holat uzoq muddatli aktivlarga yuqori hajmda investitsiya kiritish, foiz stavkalari o'zgarishining ta'sirini yetarli darajada hisobga olmaslik hamda depozitlar hajmidagi keskin o'zgarishlar bank likvidligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatdi [1].

Silicon Valley Bank (SVB) — Silicon Valley Bank Financial Group (SVBFG) tarkibiga kiruvchi bank bo'lib, mazkur guruh bank xolding kompaniyasi va moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilot sifatida faoliyat yuritgan. SVB Federal rezerv tizimiga a'zo shtat banki bo'lib, SVBFG aktivlarining asosiy qismini shakllantirgan. Bank asosan hayot fanlari va texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi korxonalariga tijorat hamda xususiy bank xizmatlarini ko'rsatgan, jumladan, ko'plab dastlabki bosqichdagi startaplar va venchur kapital mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan kompaniyalar bilan hamkorlik qilgan. Guruh daromadlarining asosiy qismi AQShdagi mijozlar hissasiga to'g'ri kelgan.

2022-yilning I choragi yakunlariga ko'ra, bankning umumiy aktivlari 218 milliard AQSh dollariga yetib, uni mamlakatdagi 16-eng yirik banklar qatoriga olib chiqqan. 2023-yilda esa SVB Forbes jurnali tomonidan dunyoning eng yaxshi banklari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, bunda uning yuqori o'sish sur'atlari, kredit portfeli sifati va moliyaviy natijalari alohida e'tirof etilgan.

Tadqiqot doirasida g'aznachilik operatsiyalarining bank likvidligini ta'minlashdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi hamda Silicon Valley Bank misolida likvidlik risklarini boshqarishning muhim jihatlari o'rganiladi. Shuningdek, banklarda zamonaviy g'aznachilik instrumentlaridan foydalanish orqali moliyaviy barqarorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank likvidligini boshqarish va g'aznachilik operatsiyalarining samaradorligini oshirish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda aktiv va passivlarni boshqarish, likvidlik risklarini nazorat qilish hamda g'aznachilik instrumentlaridan samarali foydalanish masalalari ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bank likvidligi nazariyasining rivojlanishida xorijiy iqtisodchi olimlar salmoqli hissa qo'shgan. Jumladan, Frederic S. Mishkin o'zining bank ishi va moliyaviy institutlarga bag'ishlangan tadqiqotlarida bank likvidligini moliyaviy tizim barqarorligining muhim omillaridan biri sifatida baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, banklar qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish uchun yetarli hajmdagi likvid aktivlarga ega bo'lishi zarur. Bu esa omonatchilar ishonchini mustahkamlash va bank tizimining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi [2, 3].

Shuningdek, Peter S. Rose tijorat banklari faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy ishlarida g'aznachilik operatsiyalarini bank likvidligini boshqarishning muhim vositasi sifatida e'tirof etadi. Uning tadqiqotlarida aktiv va passivlarni muvofiqlashtirish, qisqa muddatli resurslarni samarali joylashtirish hamda foiz risklarini boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida ko'rsatilgan [4].

Bank likvidligi risklarini boshqarish masalalari Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan "Basel III" standartlarida ham keng yoritilgan. Mazkur standartlarga ko'ra, banklar yuqori sifatli likvid aktivlar zaxirasini shakllantirishi va qisqa muddatli likvidlik ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilib borishi lozim. Xususan, LCR (Liquidity Coverage Ratio)² — likvidlikni qoplash koeffitsiyenti hamda NSFR (Net Stable Funding Ratio) — sof barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti ko'rsatkichlari banklarning likvidlik riskini samarali boshqarishga xizmat qiladi [5, 6].

So'nggi yillarda Silicon Valley Bank faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlar bank likvidligini boshqarishning amaliy jihatlari chuqurroq o'rganish imkonini yaratdi. Tadqiqotchilar bank faoliyatida uzoq muddatli obligatsiyalarga investitsiyalar ulushining yuqoriligi va foiz stavkalari dinamikasining aktivlar qiymatiga

1 <https://www.svb.com/> - Silicon Valley Bankning rasmiy sayti

2 <https://www.bis.org/fsi/fsisummaries/lcr.htm>.



ta'sirini alohida qayd etadilar. Shuningdek, depozit bazasining asosan texnologik startap kompaniyalarga yo'naltirilganligi likvidlikni boshqarishda diversifikatsiyaning muhim ahamiyat kasb etishini namoyon etgan.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham bank likvidligini boshqarish masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, O'zbekiston bank tizimida likvidlikni ta'minlash, g'aznachilik operatsiyalarini rivojlantirish hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda tijorat banklari faoliyatiga zamonaviy risk-menejment tizimlarini joriy etish zarurligi ta'kidlanadi. Ayrim tadqiqotlarda banklarning qisqa muddatli likvid resurslarini boshqarishda repo operatsiyalari, banklararo kreditlar va Markaziy bank instrumentlaridan foydalanish samarali mexanizmlar sifatida baholangan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank likvidligini samarali boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda g'aznachilik operatsiyalari muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, zamonaviy moliya bozorlarining dinamik rivojlanishi sharoitida likvidlik risklarini boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, stress-test tizimlarini [7] rivojlantirish hamda aktiv va passivlarni boshqarishning zamonaviy usullarini keng qo'llash banklar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot doirasida g'aznachilik operatsiyalarining bank likvidligini ta'minlashdagi o'rni nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi hamda Silicon Valley Bank misolida bank likvidligini boshqarishning muhim jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning zamonaviy usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini bank likvidligini boshqarish, aktiv va passivlarni muvofiqlashtirish, g'aznachilik operatsiyalarini tashkil etish hamda moliyaviy risklarni boshqarishga bag'ishlangan xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari tashkil etdi. Jumladan, Frederic S. Mishkin, Peter S. Rose hamda Basel Committee on Banking Supervision tomonidan ishlab chiqilgan "Basel III" standartlarining ilmiy-nazariy qarashlari va metodologik yondashuvlaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida tahlil va sintez usullari qo'llanilib, bank likvidligiga ta'sir etuvchi omillar tizimli ravishda o'rganildi. Xususan, bank aktivlari va passivlari tarkibi, depozitlar oqimi, investitsion portfel holati hamda foiz stavkalarining likvidlik darajasiga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, iqtisodiy-statistik tahlil usuli yordamida Silicon Valley Bankning moliyaviy ko'rsatkichlari, depozit bazasi va obligatsiyalar portfelidagi o'zgarishlar o'rganildi.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil usulidan ham foydalanilib, xalqaro bank amaliyotida qo'llanilayotgan likvidlikni boshqarish mexanizmlari hamda "Basel III" talablari asosida joriy etilgan LCR (Liquidity Coverage Ratio) va NSFR (Net Stable Funding Ratio) ko'rsatkichlarining amaliy ahamiyati baholandi. Bundan tashqari, kuzatish, taqqoslash va mantiqiy umumlashtirish usullari yordamida banklarda g'aznachilik operatsiyalarini samarali tashkil etish orqali likvidlik risklarini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning axborot bazasini xalqaro moliyaviy tashkilotlar ma'lumotlari, Bank for International Settlements hisobotlari, ilmiy maqolalar, tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari hamda ochiq statistik ma'lumotlar tashkil etdi. Olingan natijalar asosida banklarda likvidlikni samarali boshqarish, g'aznachilik operatsiyalarini takomillashtirish va moliyaviy barqarorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2023-yil mart oyida Silicon Valley Bank faoliyatida yuzaga kelgan holat banklarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, likvidlikni samarali boshqarish hamda risklarni o'z vaqtida baholashning muhim ahamiyatga ega ekanligini namoyon etdi. AQShdagi 16-eng yirik banklardan biri hisoblangan ushbu moliya instituti faoliyatida foiz stavkalarining oshishi natijasida qimmatli qog'ozlar portfeli qiymatining pasayishi hamda mijozlar mablag'lari oqimidagi sezilarli o'zgarishlar likvidlikni boshqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatgan [9].

Mazkur holat bank faoliyatida aktiv va passivlarni boshqarish, investitsiya siyosatini shakllantirish, bozor sharoitlariga moslashish hamda risk-menejment tizimini takomillashtirishning muhimligini yana bir bor tasdiqladi. Shuningdek, ushbu voqea bank sektorida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ehtimoliy xatarlarni oldindan baholash bo'yicha samarali mexanizmlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi.

Federal tartibga soluvchi organlar tomonidan moliya bozorlarida barqarorlikni saqlash va ishonchni mustahkamlash maqsadida tezkor choralar ko'rildi. Keyinchalik amalga oshirilgan tartibga solish tadbirlari bank tizimida likvidlik risklarini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni yanada kuchaytirishga xizmat qildi.

Jumladan, 1-jadvalda Silicon Valley Bank aktivlar portfelining tarkibi keltirilgan.

1-jadval. Silicon Valley Bank aktivlar portfeli tarkibi³


Aktiv turi	Ulushi	Xususiyati
AQSh davlat obligatsiyalari (UST)	55–60%	Uzoq muddatli investitsiyalar
Mortgage-backed securities	20–25%	Foiz stavkalari o'zgarishiga sezgir
Kredit portfeli	10–15%	Startup va venchur kapital kompaniyalariga yo'naltirilgan
Naqd pul va likvid aktivlar	Nisbatan past	Likvidlik buferini shakllantirish manbai

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bank aktivlarining asosiy qismi uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarga joylashtirilgan bo'lib, ularning qiymati foiz stavkalari dinamikasiga sezilarli darajada bog'liq bo'lgan.

Xususan, Silicon Valley Bank asosan texnologiya va biotexnologiya yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi startup kompaniyalarga xizmat ko'rsatgan. Bank mijozlarining katta qismi yuqori hajmdagi depozitlarga ega bo'lib, ularning ko'pchiligi FDIC (Federal Deposit Insurance Corporation) tomonidan belgilangan 250 000 AQSh dollari miqdoridagi sug'urta limitidan yuqori bo'lgan.

Bank tomonidan uzoq muddatli qimmatli qog'ozlarga salmoqli hajmda investitsiyalar kiritilgan. 2022-yilda foiz stavkalarining oshishi ushbu aktivlar bozor qiymatiga ta'sir ko'rsatgan. Natijada aktivlar portfelini qayta muvozanatlashtirish va likvidlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida ayrim qimmatli qog'ozlarni realizatsiya qilish zarurati yuzaga kelgan. Ushbu holat banklarda g'aznachilik operatsiyalarini samarali tashkil etish, aktiv va passivlarni muvofiqlashtirish hamda likvidlik risklarini doimiy monitoring qilib borish muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

2023-yil mart oyida bir kun davomida mijozlar tomonidan qariyb 42 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'larning yechib olinishi bank likvidligiga sezilarli bosim yuzaga keltirdi va natijada bank faoliyatida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi (1-rasm).



1-rasm. Silicon Valley Bank depozitlari hajmi va bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan AQSh Federal rezerv tizimi foiz stavkalari dinamikasi (2018–2022-yillar)⁴

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2018-yilda Silicon Valley Bank depozitlari hajmi 49 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda ushbu ko'rsatkich 61,8 milliard AQSh dollariga yetgan. 2020-yilda depozitlar hajmining sezilarli o'sishi kuzatilib, ular 102 milliard AQSh dollariga yetgan. 2021-yilda esa depozitlar hajmi yanada oshib, 189 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. 2022-yilda depozitlar hajmida ma'lum darajadagi qisqarish kuzatilib, ko'rsatkich 175 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan.

Mazkur davrda AQSh Federal rezerv tizimining foiz stavkalari dinamikasi depozitlar hajmidagi o'zgarishlarga nisbatan teskari yo'nalishda shakllangan. Jumladan, 2018-yilda 2,5 foizni tashkil etgan asosiy stavka 2019-yilda 1,75 foizgacha pasaytirilgan. 2020–2021-yillarda pandemiya sharoitida iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash maqsadida foiz stavkasi 0,25 foiz darajasida saqlab turilgan. 2022-yilda esa inflyatsion bosimning kuchayishi natijasida stavka bosqichma-bosqich oshirilib, 4,5 foizga yetkazilgan.

³ Muallif ishlanmasi. Manba: <https://www.svb.com/> - Silicon Valley Bankning rasmiy sayti

⁴ Muallif ishlanmasi. Manba: <https://www.svb.com/> - Silicon Valley Bankning rasmiy sayti



Umuman olganda, 2020–2021-yillarda past foiz stavkalari sharoitida Silicon Valley Bank depozitlari hajmining jadal o'sgani, 2022-yilda esa foiz stavkalarining oshishi fonida depozitlar o'sish sur'atlarining sekinlashgani va ma'lum darajada qisqargani kuzatiladi.

Xususan, bank faoliyatida muhim bosqichlardan biri 2022-yilga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda Federal rezerv tizimi tomonidan foiz stavkalarining oshirilishi texnologiya sektoridagi investitsion faollikka ta'sir ko'rsatgan. 2022-yilda depozitlar hajmida qisqarish kuzatilgan bo'lsa-da, bank yilni qariyb 212 milliard AQSh dollari miqdoridagi aktivlar bilan yakunlagan. Shu bilan birga, yil oxiriga kelib depozitlarning qariyb 94 foizi sug'urtalanmagan mablag'lardan iborat bo'lgani likvidlikni boshqarishda qo'shimcha e'tibor talab etuvchi omil sifatida namoyon bo'lgan.

2023-yil mart oyida qisqa muddat ichida depozit mablag'lari hajmidagi sezilarli o'zgarishlar bankning likvidlik pozitsiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Natijada, 2023-yil 10-mart kuni federal tartibga soluvchi organlar tomonidan bank faoliyati ustidan tegishli nazorat choralarini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Federal rezerv boshqaruv kengashining 2023-yil 28-apreldagi press-relizida Silicon Valley Bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan bir qator omillar qayd etilgan. Jumladan:

- risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjudligi;
- bank faoliyatidagi ayrim risk omillarini baholash va monitoring qilish jarayonlarini kuchaytirish ehtiyoji;
- aniqlangan masalalar bo'yicha nazorat mexanizmlarini yanada operativ qo'llash imkoniyatlari;
- tartibga solish talablaridagi o'zgarishlarning bank faoliyatiga ta'siri.

Shuningdek, Federal rezerv ma'lumotlariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda axborotlarning tez tarqalishi depozit mablag'lari harakati sur'ati va ko'lamining oshishiga ta'sir ko'rsatgan. Silicon Valley Bank faoliyatidagi jarayonlarni 2-jadval ma'lumotlari orqali kuzatish mumkin.

2-jadval
SVBning qulash jarayoni⁵

Sana	Hodisa
2023-yil 8-mart	SVB Financial Group obligatsiyalar portfeli bo'yicha 1,8 milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy natijani e'lon qildi hamda yil yakuni bo'yicha kutilayotgan daromad ko'rsatkichlariga aniqlik kiritdi. Ushbu ma'lumotlarning keng muhokama qilinishi natijasida ayrim omonatchilar mablag'larini yechib olishga qaror qildilar.
2023-yil 9-mart	Mijozlar tomonidan qariyb 42 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'lar yechib olindi.
2023-yil 10-mart	Kaliforniya moliyaviy nazorat organi bank faoliyati ustidan nazorat o'rnatdi va FDICni vaqtinchalik boshqaruvchi sifatida tayinladi.
2023-yil 12-mart	FDIC sug'urtalangan depozitlarga to'liq kirish imkoniyatini ta'minladi hamda sug'urtalanmagan mablag'lar bo'yicha tegishli mexanizmlarni joriy etdi.
2023-yil 13-mart	FDIC Silicon Valley Bankning 17 ta filialini qayta ishga tushirdi va Santa Clara Deposit Insurance National Bank (DINB) orqali operatsion faoliyatni davom ettirdi.
2023-yil 26–27-mart	First Citizens Bank Silicon Valley Bankning aktivlari va majburiyatlarini sotib oldi (taxminan 110 milliard AQSh dollari aktivlar, 56 milliard AQSh dollari depozitlar va 72 milliard AQSh dollari kreditlar).

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil mart oyida obligatsiyalar portfeli bo'yicha moliyaviy natijalar e'lon qilingandan so'ng depozitlar harakatida sezilarli faollik kuzatilgan. Qisqa muddat ichida mablag'lar oqimining ortishi bank likvidligini boshqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatgan. Natijada tartibga soluvchi organlar tomonidan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida tegishli choralar ko'rilgan. FDIC omonatchilar manfaatlarini himoya qilish va moliyaviy tizim barqarorligini saqlash maqsadida bank aktivlarini vaqtinchalik boshqaruvga olgan. Keyinchalik bankning aktivlari va majburiyatlari First Citizens Bank tomonidan qabul qilinib, jarayon tartibli ravishda yakunlangan.

Umuman olganda, mazkur holat bank likvidligini boshqarish, depozit bazasini diversifikatsiya qilish va risklarni samarali monitoring qilishning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Ushbu jarayonning omonatchilar va investorlarga ta'sirini tahlil qiladigan bo'lsak, FDIC (Federal Deposit Insurance Corporation) AQSh hukumatining mustaqil agentligi hisoblanib, banklarda saqlanayotgan depozitlarni har bir omonatchi va hisob turi bo'yicha 250 000 AQSh dollarigacha sug'urtalashni ta'minlaydi. Mazkur himoya mexanizmi depozitlarning asosiy summasi bilan bir qatorda hisoblangan foizlarni ham qamrab oladi. Masalan, omonatchi FDIC tomonidan sug'urtalangan bankka 100 000 AQSh dollari miqdorida mablag' joylashtirib, vaqt o'tishi bilan 3 000 AQSh dollari foiz daromadi olgan bo'lsa, sug'urta qoplamasi 103 000 AQSh dollarini tashkil etadi.

Silicon Valley Bank depozitlarining asosiy qismi FDIC tomonidan belgilangan 250 000 AQSh dollari limitidan yuqori bo'lgan. Shunga qaramasdan, ushbu holatda tizimli xavf istisnosi (systemic risk exception) mexanizmi

⁵ Muallif ishlanmasi. <https://www.svb.com/> - Silicon Valley Banking rasmiy sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.



qo'llanilib, barcha depozitlar bo'yicha to'lovlar ta'minlangan. Mazkur mexanizm moliya tizimi barqarorligini saqlash va ehtimoliy tizimli ta'sirlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Tizimli xavf istisnosini qo'llash uchun FDIC kengashi a'zolarining uchdan ikki qismi, AQSh Moliya vaziri hamda Prezident roziligi talab etiladi. Mazkur mexanizm 1991-yildan buyon cheklangan hollarda, jumladan, 2008–2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz davrida ham qo'llanilgan.

Silicon Valley Bank faoliyati misolida bank tizimida likvidlik riski va depozitlar tarkibini boshqarishning muhim ahamiyati yaqqol namoyon bo'ldi. Xususan, bankda jamlangan qariyb 175 milliard AQSh dollari miqdoridagi depozitlarning 90 foizdan ortig'i FDIC sug'urta limitidan yuqori bo'lgan. Bu esa depozitlar tarkibini diversifikatsiya qilish va likvidlik risklarini boshqarish bo'yicha qo'shimcha yondashuvlarni talab etgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, FDIC tomonidan qo'llangan tizimli xavf istisnosi omonatchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, aksiyadorlar va investorlar uchun esa amaldagi bozor tamoyillari asosida yondashuv qo'llanilgan. Natijada investorlar o'z investitsiya qarorlari bilan bog'liq moliyaviy natijalarni mustaqil ravishda qabul qilganlar.

Federal rezerv ma'lumotlariga ko'ra, Silicon Valley Bank bilan bog'liq jarayonlar natijasida Deposit Insurance Fund (DIF) zimmasiga taxminan 16,1 milliard AQSh dollari miqdoridagi xarajat yuklangan. Mazkur fond FDIC tomonidan boshqariladi va banklarning muntazam badallari hisobidan shakllantiriladi. Shu bois ushbu mablag'lar bevosita davlat budjeti yoki soliq to'lovchilarning mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmagan.

Bank faoliyati mexanizmi nuqtayi nazaridan tijorat banklari jalb qilingan depozitlarni kreditlash va investitsiya operatsiyalariga yo'naltiradi hamda ma'lum hajmdagi likvid aktivlarni saqlab turadi. Biroq qisqa muddat ichida depozitlar oqimining sezilarli o'zgarishi likvidlik nomutanosibligini yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli banklarda g'aznachilik operatsiyalarini samarali tashkil etish, likvidlik buferlarini shakllantirish va risklarni doimiy monitoring qilish moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

SVB inqirozidan so'ng Federal rezerv tomonidan 25 milliard AQSh dollari miqdorida Bank Term Funding Program (BTFP) dasturi joriy etildi. Mazkur dastur banklarga bir yilgacha muddatga likvidlik ta'minlash imkonini berib, garov sifatida asosan AQSh davlat obligatsiyalarini qabul qiladi.

Inqirozdan keyingi davrda mintaqaviy banklarning aksiyalari keskin pasaydi, depozitlar esa yirik banklarga, jumladan, JPMorgan Chase va Wells Fargo kabi institutlarga oqib o'ta boshladi. Natijada o'rta hajmdagi banklar uchun moliyalashtirish xarajatlari oshib, depozitlar bo'yicha foiz stavkalarini ko'tarish tendensiyasi kuchaydi.

Xalqaro bank amaliyotidagi likvidlikni boshqarish mexanizmlari hamda "Basel III" talablari asosida joriy etilgan LCR va NSFR ko'rsatkichlarining amaliy ahamiyati, shuningdek, Silicon Valley Bank holati 3-jadvalda baholangan.

3-jadval
LCR, NSFR va SVB holati bo'yicha taqqoslama⁶

Ko'rsatkich	LCR (Liquidity Coverage Ratio)	NSFR (Net Stable Funding Ratio)	SVB (Silicon Valley Bank holati)
Asosiy maqsad	30 kunlik stress sharoitida likvidlikni ta'minlash	Uzoq muddatli barqaror moliyalashtirishni ta'minlash	Likvidlik va moliyalashtirish nomutanosibligi
Boshqaruv obyekti	Qisqa muddatli likvid aktivlar	Aktiv va passivlarning uzoq muddatli mosligi	Depozitlar va uzoq muddatli obligatsiyalar
Nazorat qilinadigan risk	Likvidlik chiqimi (bank run)	Funding risk (barqaror resurslar yetishmasligi)	Ommaviy depozit yechimi va foiz riski
Normativ talab	≥100% (Basel III)	≥100% (Basel III)	Rasmiy talablarga yaqin, lekin stress sharoitida yetarli emas
SVBdagi holat	Qisqa muddatda likvid aktivlar yetarli bo'lmagan	Uzoq muddatli obligatsiyalar va qisqa muddatli depozitlar o'rtasida nomutanosiblik mavjud bo'lgan	Funding mismatch kuchli bo'lgan
Stress-test natijasi	1–2 kun ichida likvidlik tanqisligi yuzaga kelgan	Barqaror funding buzilgan	42 milliard AQSh dollari miqdoridagi depozit bir kun ichida chiqib ketgan
Asosiy zaiflik	Statik hisob-kitob real vaziyatni to'liq qamrab olmaydi	Depozitlarning beqarorligi yetarli darajada inobatga olinmagan	Foiz stavkasi riski va depozit konsentratsiyasi
Yakuniy xulosa	Nazariy jihatdan kuchli, amaliyotda ayrim cheklolarga ega	Strukturaviy riskni kamaytiradi, biroq SVB holatida yetarli natija bermagan	Basel III instrumentlari to'liq himoya ta'minlay olmagan

6 Muallif ishlanmasi. <https://www.bis.org> – Bazel qo'mitasining rasmiy sayti va <https://www.svb.com/> - Silicon Valley Bankning rasmiy sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.



3-jadval ma'lumotlariga ko'ra, SVB misoli LCR va NSFR ko'rsatkichlari bank likvidligini nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, real bank yugurishi (bank run) va ijtimoiy ishonchning keskin o'zgarishi sharoitida ushbu ko'rsatkichlarning himoya qobiliyati ma'lum darajada cheklanganligi kuzatilgan. Ayniqsa, depozitlarning yuqori konsentratsiyasi va foiz stavkalari o'zgarishi bilan bog'liq risklar ushbu ko'rsatkichlar doirasidan tashqarida sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

SVBdan keyin moliyaviy sektor ichida yana bir qator banklarda beqarorlik holatlari kuzatildi. Jumladan, Signature Bank 2023-yil 12-martda likvidlik bilan bog'liq muammolar sababli yopildi va ushbu holatda ham tizimli xavf istisnosi qo'llanildi. Keyinchalik First Republic Bank ham omonatchilar ishonchidagi o'zgarishlar ta'sirida 2023-yil may oyida faoliyatida jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi. SVB va Signature Bank holatlarida umumiy yo'qotishlar taxminan 22,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgan.

Umuman olganda, SVB inqirozi bank tizimida risklarni boshqarish, depozitlar konsentratsiyasi va likvidlikni boshqarish mexanizmlarining muhim jihatlarini yaqqol namoyon etdi. Inqirozning tez sur'atlarda rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllangan axborot oqimlari ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, FDIC tomonidan qo'llangan tizimli xavf istisnosi va Federal rezervning likvidlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari keng ko'lamli moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Tadqiqot natijasida banklarda likvidlik xavfini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun zamonaviy g'aznachilik instrumentlaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- **Likvidlik monitoringining real vaqt rejimini joriy etish.** Banklarda g'aznachilik operatsiyalarini real vaqt rejimida kuzatish tizimini (real-time liquidity dashboard) joriy etish orqali qisqa muddatli likvidlik tafovutlarini erta aniqlash va tezkor boshqarish imkoniyatlarini yaratish zarur.

- **Stress-test modellarini kuchaytirish va kengaytirish.** Likvidlik stress-testlari nafaqat an'anaviy bank yugurishi (bank run) holatlarini, balki ijtimoiy tarmoqlar orqali yuzaga keladigan "raqamli panika" ssenariyalarini ham qamrab olishi lozim.

- **Aktiv va passivlar muddatlari mosligini (ALM) optimallashtirish.** G'aznachilik bo'limlarida aktivlar va majburiyatlarning muddatlar kesimidagi nomutanosibligini kamaytirish maqsadida ALM boshqaruvini yanada qat'iy standartlar asosida kuchaytirish tavsiya etiladi.

- **Likvid aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish.** Banklar yuqori likvid aktivlar tarkibini faqat davlat obligatsiyalariga emas, balki yuqori kredit reytingiga ega qisqa muddatli instrumentlar (repo va money market instruments) hisobiga ham kengaytirishi lozim.

- **Markaziy bank likvidlik liniyalaridan proaktiv foydalanish.** Favqulodda holatlarda likvidlikni tezkor ta'minlash maqsadida Markaziy bankning standing lending facility va repo instrumentlaridan foydalanish mexanizmini soddalashtirish hamda tezlashtirish zarur.

- **Depozit bazasini diversifikatsiya qilish strategiyasi.** Yirik korporativ mijozlarga haddan tashqari bog'liqlikni kamaytirish maqsadida chakana depozitlar ulushini oshirish va depozitlar konsentratsiyasini cheklash bo'yicha ichki siyosatni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

- **Digital risk monitoring (ijtimoiy media risk indikatorlari).** Omonat mablag'lari chiqib ketishi xavfini prognoz qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlardagi sentiment tahlilini g'aznachilik risk indikatorlariga integratsiya qilish tavsiya etiladi.

- **G'aznachilik instrumentlarini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi (TMS).** Treasury Management System (TMS) orqali likvidlik oqimlarini, foiz risklarini va aktivlar tarkibini avtomatik optimallashtirish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

- **Favqulodda likvidlik buferini (liquidity buffer) oshirish.** Banklar uchun minimal likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) talablaridan tashqari ichki "stress buffer" mexanizmini joriy etish tavsiya etiladi.

- **Markazlashgan g'aznachilik koordinatsiyasi.** Bank guruhlar doirasida likvidlikni markazlashgan treasury hub orqali boshqarish hamda resurslarni filiallar o'rtasida tezkor qayta taqsimlash mexanizmlarini yaratish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida g'aznachilik operatsiyalarining bank likvidligini ta'minlashdagi ahamiyati Silicon Valley Bank misolida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aktiv va passivlar o'rtasidagi nomutanosiblik, foiz risklarining yetarli darajada boshqarilmasligi hamda depozit bazasining diversifikatsiya darajasi pastligi bank likvidligi riskining ortishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uzoq muddatli investitsiyalar ulushining ortishi qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish jarayoniga qo'shimcha bosim yuzaga keltirishi mumkin.

Shuningdek, banklarda g'aznachilik operatsiyalarini samarali tashkil etish, yuqori sifatli likvid aktivlar ulushini oshirish, stress-test mexanizmlarini muntazam qo'llash hamda Basel Committee on Banking Supervision



tomonidan tavsiya etilgan LCR va NSFR ko'rsatkichlarini amaliyotga keng joriy etish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Federal Reserve. *Review of the Federal Reserve's Supervision and Regulation of Silicon Valley Bank*. – April 2023.
2. Mishkin, F.S. *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. 7th Edition. – Pearson Education, 2004.
3. Mishkin, F.S. *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. 10th Edition. – Pearson, 2013.
4. Rose, P.S., Hudgins, S.C. *Commercial Bank Management*. 8th Edition. – New York: McGraw-Hill/Irwin, 2013.
5. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and Liquidity Risk Monitoring Tools*. – Bank for International Settlements, 2013.
6. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III: The Net Stable Funding Ratio*. – Bank for International Settlements, 2014.
7. Akbarov, A.A. *Stress-test modellarining tijorat banklari barqarorligini baholashdagi roli*.
8. Federal Deposit Insurance Corporation. *Bank Failures in Brief – Summary 2001–2023*.
9. SVB. *Silicon Valley Bank Celebrates 20 Years of Dedication to Entrepreneurs*.
10. Federal Reserve. *Material Loss Review of Silicon Valley Bank*. – P. 18.
11. Federal Reserve. *Federal Reserve Board Announces the Results from the Review of the Supervision and Regulation of Silicon Valley Bank, Led by Vice Chair for Supervision Barr*.
12. Federal Reserve Office of the Inspector General. *Material Loss Review of Silicon Valley Bank*. – P. 9.
13. Silicon Valley Bank rasmiy sayti: <https://www.svb.com/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>